

Mardon Rahmatov

(Toshkent, O'zbekiston)
mardonrahmat@gmail.com

O'zbek tili sintaksisi rivojida *chun* bog'lovchisining o'rni

Abstrakt

Tilda boshqa tizimdagi tillarga xos grammatik shakllarning qo'llanishi, ularning o'sha tilga xos sintaktik qoliplarining va mazmuniy munosabatlarning ifodalanishi masalasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shunday grammatik shakllaridan biri *chun* bog'lovchisidir. Mazkur maqolada *chun* bog'lovchisining qo'llanishi tarixi, uning o'zbek tili sintaksisi taraqqiyotidagi o'rni masalalari zamonaviy tilshunoslikda erishilgan yutuqlar asosida o'rganildi. Jumladan, bog'lovchining obyektiv (diktum) va subyektiv (modus) mazmundagi gaplarni shakllantirishi, obyektiv mazmunli gaplar qo'shma gapning tobe komponenti sifatida qo'llanib sabab, payt, shart, o'xshatish kabi mazmuniy munosabatlarni ifodalashi, subyektiv mazmunni ifodalanganda esa kiritma gap sifatida qo'llanishi ochib berildi. Shuningdek, bog'lovchining yana bir o'ziga xos jihati mavjudligi aniqlangan, ya'ni bog'lovchining gap tarkibida, turli gap bo'laklari orasida qo'llana olish imkoniga egaligidir. Bu masala gapning grammatik mazmun planini, ya'ni sintaksisning kommunikativ aspekti nuqtayi nazaridan yondashib o'rganildi.

Tahlilga tortilgan til materiallari o'zbek tilining sintaktik qurilishi taraqqiyoti masalalariga oydinlik kiritadi. Shuningdek, chiqarilgan ilmiy xulosalar, asoslar klassik va zamonaviy o'zbek adabiyoti, fors adabiyotining hozirgi o'zbek tilidagi tarjimalarida uchraydigan *chun//chu* bog'lovchining matndagi ma'nolarini to'g'ri anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *bog'lovchi, morfologik shakl, sintaksis, gap, qo'shma gap, tobe gap, kirish so'z, kiritma gap, aktual bo'linish, tema, rema.*

Muallif haqida: *Rahmatov Mardon Mehmonovich* – filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbek tilshunosligi kafedراسи dotsenti.

Tavsiya etiladigan havola: Rahmatov, Mardon. 2020. "O'zbek tili sintaksisi rivojida *chun* bog'lovchisining o'rni". *Oltin bitiglar* 3: 54—68.

Kirish

O'zbek tili turkiy tilning tarixan taraqqiy etgan bir tarmog'idir. O'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti masalalarini belgilashda XIII asr oxiri va XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan eski o'zbek tili deb ataluvchi davrning tili ahamiyatli. Jumladan, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning adabiy til ravnaqi uchun olib borgan kurashi madaniyatimiz tarixida muhim o'rin egallaydi. U chinakam vatanparvar shoir va olim sifatida xalq tilining bitmas-tuganmas manbalaridan foydalanish, uning boyligi va nafisligini namoyish etish bilan faqat o'z zamondoshlariga emas, balki undan keyingi butun avlodlarga ham o'rnak ko'rsatdi. U yaratgan asarlarida o'zbek tilining boy xazinasidan foydalanish bilan birga shu davr an'anasiga muvofiq boshqa tizimdagi tillarning elementlarini qo'lladi. Jumladan, uning asarlarida fors tiliga xos bo'lgan *chun, to, -ki, agar, agarchi* kabi bog'lovchilar va boshqa forsiy grammatik shakllarni shu darajada mahorat bilan qo'lladiki, bu kabi bog'lovchili gaplar adib asarlarining uslubiy me'yorini ta'minladi.

Chun bog'lovchisi o'zbek yozma yodgorliklarida XIII asrdan to XX asrning boshlarigacha qo'llanishda bo'lgan. *Chun* bog'lovchisi faqat nasriy asarlar tilida qo'llangan bo'lsa, she'riy asarlarda *chun* shakli bilan bir qatorda uning fonetik varianti *chu* shakli ham faol qo'llangan. Ularning qo'llanish tarixida ba'zi farqlar kuzatiladi: *chun* XIII – XIV asr ayrim yodgorliklarida – «Qissasi Rabg'uziy», «Tafsir»da nisbatan kam uchraydi, biroq XV – XVI asrlar adabiy manbalarida, jumladan, Alisher Navoiy va Boburning nasriy va nazmiy asarlarida ko'p ishlatilgan [Абдурахмонов, Шукуров 1973, 311]: *chu* esa XV asrdan boshlab qo'llanilgan bo'lib, faqat she'riy asarlarda uchraydi. *Chun//chu* bog'lovchisi XIX asr o'zbek yozuvchi va shoirlari asarlarida kam bo'lsa-da, uchraydi. Bog'lovchi XIX asrning oxirida paydo bo'lgan matbuot tilida ham qo'llangan [Рахмонов 1971, 27]. Ammo keyinchalik o'zbek adabiy tili me'yorlari talabiga javob bermagani uchun iste'moldan chiqib ketdi. *Chun//chu* bog'lovchisi hozirgi o'zbek adabiy tili normasi sanalmasa-da, ba'zan she'riy asarlarda uchrab turadi:

O'n sakkiz ming olam oshubi

Padar boshindadir,

Ne ajab, chun o'g'li oning

O'n sakkiz yoshindadir [Boхuдoв 1986, 333].

Keyingi yillarda o'zbek tiliga klassik va zamonaviy fors tilidan o'g'irilgan tarjima asarlar tilida ham *chun/chu* bog'lovchilarini

uchratish mumkin:

*Layli bu g'azalni chun eshitti,
Yig'i bila toshni eritti [Низомий 2005, 89-103].
Xunrez chun reshi donarezman
Sargashta chu gardi xonarezman.
Chu bilmasmen o'zingdin o'zga kasni
Bu boshlardin chiqarg'il bu havasni [Аттор 2005, 62].*

Uchun ko'makchisi va chun bog'lovchisi

Uchun ko'makchisi turkiy tillarga xos bo'lib, u qadimgi turkiy manbalarda ham uchraydi: *qag'an uchun* (xoqon uchun) [Абдурахмонов 1982, Тб. 48], *qazg'antuq uchun* (g'alaba qozongani uchun) [Абдурахмонов 1982, Тб. 61], *quti bar uchun* (baxti bor uchun) [Абдурахмонов 1982, Ктб. 10] kabi. E.Fozilov *uchun* ko'makchisi O'rxun-Yenisey, uyg'ur, turfon manixey yodnomalari tilida: sabab, vaj, bois; ish-harakat biror shaxsga, predmetga atalganligi, yo'nalganligi, bog'liqligi; maqsad kabi ma'no munosabatlarini ifodalashini aytadi [Фозилов 1965, 135].

Eski o'zbek tilida ham uchun ko'makchisining *-chun* shakli ham qo'llangan va bosh kelishikdagi otlarni, qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshlarini boshqaruv yo'li bilan bog'lagan. Masalan: *aning -chun* [Нав. ФШ, 37], *bizning -chun* [БН, 79], *qiymati -chun* [Нав. «СС» 50]; *inshoollo -chun* [ТФ], *ne-chun* [ҚР], *anung -chun* [ХШ], *ne -chun, hurmati -chun* [С.Саройй], *ruxsori -chun* [ЛТ] [XV – XIX asrlar... 1990, 252] kabi. Hozirgi o'zbek she'riyatida ham ba'zan *uchun* ko'makchisi *-chun* shakli (fonetik varianti)da uchrab turadi.

Ko'rinadiki, *uchun>chun* ko'makchisi va *chun* bog'lovchisi bir-birini takrorlamaydigan grammatik vositalar sanaladi. Qadimdan qo'llanib kelingan *uchun* va she'riyatdagi *-chun* (*uchun>chun*) ko'makchisi softurkiy, *chun* bog'lovchisi esa fors tiliga xos grammatik vositadir. *-chun* (*uchun>chun*) va forsiy *chun* bog'lovchisi shaklan bir-biriga teng kelib qolgan omonim (ikkita so'z) sanaladi. Ularning farqli xususiyatlarini quyidagilarda ko'rinadi:

a) *uchun* (*uchun>chun*) ko'makchisi o'zbek tilida ot, sifat va sifatdoshlardan so'ng qo'llanib, ularning fe'l tomonidan boshqariluvini ta'minlovchi grammatik vosita sanaladi. Masalan:

– ot va otlashgan so'zlarni fe'lga boshqaruv yo'li bilan bog'laydi: *Türk budun üçün tün udimadim, küntüz olurmadim* [Абдурахмонов 1982, БХБ] (Turk xalqi uchun kechasi uxlamadim, kunduzlari o'tirmadim);

– fe'l o'ramlarini boshqaruv yo'li bilan bog'laydi: *Täңri күч*

bärtük üçhün, aqañim qaq'an süsi böri-täg ärmish, yaqısı qoy-täg ärmish [Абдурахмонов 1982, БХб-7] (Tangri kuch bergani uchun otam xoqonning lashkari bo'ridek, dushmani qo'ydek emish);

b) forsiy *chun* bog'lovchisi esa boshqaruv munosabatini emas, balki bir sodda gapni ikkinchisiga bog'laydi va muayyan semantik munosabatni yuzaga chiqaradi. *Chun Yusuf a.s. burqa' bila erdi, alar tonimas erdilar* [Navoiy 2000, 127]. Ushbu gapda *chun* bog'lovchisi *Yusuf a.s. burqa' bila erdi* gapini sabab munosabatiga ko'ra bosh gapga bog'lagan;

v) uchun ko'makchisi bilan qo'llangan morfologik shakllar sabab, atalganlik ma'nosida keladi va forsiy *chun* bilan ekvivalent bo'la oladi; *chunning* semantikasi payt, shart ma'nosini ifodalashiga ko'ra uchun ko'makchisidan farqlanadi;

g) shuningdek, ular qo'llanish o'rniga ko'ra ham farq qiladi. *Uchun* ko'makchisining gapda qo'llanish o'rni turg'un, ya'ni faqat boshqarilayotgan so'zdan keyin *chun* bog'lovchisi esa har doim ergash gap tarkibida (nutq egasining kommunikativ maqsadi bilan bog'liq holda ergash gap tarkibidagi turli bo'laklari orasida) qo'llanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida keng iste'molda bo'lgan *chunki* bog'lovchisi *chun* bog'lovchisiga *-ki* (forscha *-ke* كه) ergashtiruvchi bog'lovchisining qo'shilishi yo'li bilan hosil bo'lgan. Bog'lovchi xususida doktor Muhammad Mo'inning o'zining "فرهنگ فارسی" asarida *chun* va *ke* چونکه-(چون+که) bog'lovchilarining birikuvidan tuzilganligini aytadi [محمد مُعین ۵۷۳۱، ۱، ۰۲۳۱]. Bu bog'lovchi boshqa turkiy tillarda, jumladan, ozarbayjon, gagauz, qirim-tatar, tatar, turk, turkman tillarida ham qo'llanadi [Гаджиева 1973, 365].

Ta'kidlash o'rinliki, *chunki* bog'lovchisining o'zbek xalq nutqida ishlatilishi chegaralangan, buni o'zbek xalq shevalari sintaksisini sof turkiy qolipda ekanligi bilan izohlash mumkin. Bugungi kunda ham xalqimiz bu bog'lovchiga faqatgina adabiy til mas'uliyati bilangina murojaat qiladi. Ya'ni so'zlovchi o'z fikrini bayon qilishda adabiy nutqqa tayansagina, *chunki* bog'lovchisini qo'llashga ehtiyoj sezadi.

Turkiy matnlarda qo'llangan *chun* bog'lovchisining gapdagi o'rni va ma'nolarini o'rgangan olimlarning fikrlari deyarli bir xil. Jumladan, A.M.Shcherbak [Шчербак 1962, 219]. N.Z.Gadjiyeva [Гаджиева 1973, 365] bu bog'lovchining payt, sabab, shart ergash gaplarni hosil qilishda ishtirok qilishi, G'Abdurahmonov va Sh.Shukurov [Абдурахмонов, Шукуров 1973, 311], A.Matg'oziyevlar [Матғозиев 1966, 2] esa gapda payt, sabab, shart, o'xshatish, natija

munosabatlarini ifodalashini ta'kidlaydi. shuningdek, M.Rahmonov vaqtli matbuot tilida sabab, payt, S.Solixo'jayeva ham payt ma'no munosabatini ifodalaganini qayd etishgan [Солихўжаева 1988, 14].

Chun bog'lovchisiga zamonaviy fors tiliga bag'ishlangan adabiyot, lug'atlarda quyidagicha sharh berilgan. M.Abdusamatov bu bog'lovchi hozirgi eron adabiy tilidagi sodda va qo'shma gaplarda payt va sabab mazmuniy munosabatli ergash gaplarni bosh gapga bog'lashini aytadi [Абдусаматов 1977, 200; 296]. Forscha-o'zbekcha lug'atda uning: o'zbek tilidagi kabi ko'makchisi ma'nosiga teng kelishi (- *oy kabi*); - *gach* ravishdoshi ifodalagan ma'noda qo'llanishi (*چون او آمد* - u kelgach...); *qanday?*, *qanday qilib?* (*بی چون*) so'roq olmoshlari ma'nosida kelishi haqida ma'lumot beriladi [Русамов va b. 73]. Lug'atshunos doktor Muhammad Mo'inning izohlashicha, *chun* bog'lovchisi qadimgi pahlaviy tili (*چیدون* - *chidun*) so'zidan olingan bo'lib, o'xshatish (*مانند*, *مثل*), *payt* (*وقتی*, *هنگامی*), *zero* (*زیرا*), *bad in sabab* (*بدین سبب* - *ushbu sababdan so'ng*) ma'nosida; fors tilida so'roq olmoshlari (*چگونہ؟* - *qanday?*, *چطور؟*) o'rnida qo'llanishini qayd qiladi [ص-۲۳۱، ۱، ۵۷۳۱، محمد مُعین]. Shuningdek, doktor Hasan Anvariyning izohli lug'atida bu bog'lovchi (*تا اینکہ*) *to*, (*تا اینکہ*) *toinki*; (*اگر*) *agar* bog'lovchisi, (*پس چرا*) *pas chero?* (*keyin nega endi?*); (*در حدود*) *dar hududi* - *hududida*; (*قربیب*) *qariyb*, (*نزدیک*) *nazdik* - *yaqin*; (*چه*) *che* - *nima?*, (*چه قدر*) *che qadar* - *nimagacha?*, *qanchalik*; (*از آن جاکه*) *az on joke-o'sha joydanki*, (*مانند*) *monandi*; (*مِثْل*) *misli* so'zlari o'rnida qo'llanishi haqida ma'lumot beradi va uning fors she'riyatida *chu* shakli keng qo'llanishini ta'kidlaydi va *chu* {=چون} *chun* bilan ma'noda bir xil ekanligini ko'rsatgan holda uning «shoirona» so'z ekanligini aytadi [حسن انوری]. [سخنی ۲۱۳۱، ۳، ۱۴۲]. Bundan tashqari, eski o'zbek tilida faol qo'llangan va hozirgi o'zbek tilida qo'llanuvchi ayrim so'zlarning kelib chiqishini *chun* bog'lovchisining tarixiy taraqqiyoti bilan bog'lashadi. *Chunon* so'zi ham (*chun va on* - *shu damda*, *shu onda*, *shu vaqtda*) aslida so'zlarining qo'shilidan, *chunin* so'zi ham (*chun va in* - *shunda*) aslida so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lganligi qayd qilinadi [ص-۲۳۱، ۱، ۵۷۳۱، محمد مُعین].

Ta'kidlanganidek, *chun* bog'lovchisi jumla tarkibida qo'llanib, bir necha mazmun-munosabatlarni ifodalagan. Bog'lovchi sabab mazmunidagi gapning boshida qo'llanganda, hozirgi o'zbek tilidagi *shuning uchun* bog'lovchisi (ko'makchili qurilma) bajargan sintaktik vazifaga sinonim bo'ladi.

Klassik matnlardagi *chun* bog'lovchili sabab ergash gapli qo'shma gaplar hozirgi o'zbek tiliga transformatsiya qilinganda,

shuning uchun bog'lovchisi, shuningdek, hozirgi o'zbek tilida mavjud bo'lgan sifatdosh+ko'makchi (-gani uchun) morfologik shakli ma'nosiga mos keladi. Chun Ardasherining o'g'li yo'q erdi, dedikim, nechuk malomat bo'lmag'aykim, olam mulkin oldim... [Навойй 2000, 224]. Jumlani quyidagicha transformatsiyalash mumkin: Ardasherining o'g'li yo'q edi, shuning uchun dedi... yoki Ardasherining o'g'li bo'lmaganligi uchun (sababli), dedikim...

Chun bog'lovchisi ishtirok etgan payt ergash gapli qo'shma gaplarni ba'zan hozirgi o'zbek adabiy tilidagi payt ma'nosini ifoda qiluvchi -ib, -b, -gach, -gandan so'ng kabi grammatik vositalar bilan transformatsiyalash mumkin. Chun o'tunlar cho'g' bo'ldi, yerga yoydilar [Навойй 2001, 155]. Transformatsiyasi: O'tinlar cho'g' bo'lgach //-gandan so'ng yerga yoydilar kabi. Anglashiladiki, chun bog'lovchisi va uning turkiy ma'nodoshlari o'zaro vazifadosh sanalib, bir xil mazmundagi o'ramlarning sinonimiyasini hosil qiladi.

Chun bog'lovchili gaplarning mazmuniy xususiyatlari

Har qanday lisoniy belgi o'zining shakliy va ma'no xususiyatlari birligidan iborat. An'anaviy sintaktik nazariyalarda, asosan, lisoniy belgining shakliy tuzilishi bilan bog'liq masalalar o'rganib kelindi. Gapning mazmuniy xususiyatlari bilan bog'liq tadqiqotlarda, asosan, uch aspektda: propozitiv (nominativ) aspekt, modal (obyektiv, subyektiv modallik) aspekt, kommunikativ (tema-rematik) aspektlarda o'rganilmoqda. Bulardan til birligi sifatidagi gap semantikasida faqat propozitsiya va obyektiv modallik mavjud bo'lsa, nutq birligi sifatidagi gap (jumla) semantikasida esa ulardan tashqari, albatta, kommunikativ aspekt va ba'zan subyektiv modallik ham ishtirok etadi [Нурмонов va b. 1992, 31].

Lingvistik adabiyotlarda gapning propozitiv (nominativ) aspekti obyektiv borliq bilan bog'langan denotativ aspekt nomi bilan ham yuritiladi. Denotativ voqealar ba'zan diktum (obyektiv mazmun), ularning subyektiv talqini esa modus (modal, subyektiv mazmun)lar bilan hosil qilinishi aytiladi [Черемисина, Колосова 1987, 35]. Obyektiv modallik gapni shakllantiruvchi zaruriy belgilardan biri, asosiy uzvi hisoblansa, subyektiv modallik obyektiv modallik ustidagi qo'shimcha modallikdir [Нурмонов va b. 1992, 31]. Demak, har qanday nominativ asosga ega bo'lgan gaplardagi modallikni bir-biridan farqlash zaruriy shartlardan sanaladi. Rus tilshunosi V.V.Kazmin bir xil sintaktik shaklga ega bo'lgan turli predikativ qurilma (diktum va modus)larni mazmun xususiyatlariga ko'ra statik va dinamik aspektda o'rganadi [Казмин 1983, 36].

Statik aspektda predikativ qurilmalar tarkibidagi modus voqealar sintaktik ortiqchalik asosida, dinamik aspektda modus voqealarning predikativ qurilmada kommunikativlik bilan bog'lab o'rganadi. *Chun* bog'lovchili predikativ qurilmalarni o'rganish jarayonida lingvistikaning struktur funksional va kommunikativ planida bir xil emasligini kuzatiladi. Shuning uchun *chun* bog'lovchili gaplarning umumiy mazmun xususiyatlari, denotativ voqealarni ifodalashiga ko'ra ikki turga ajratish o'rinli: 1. Obyektiv mazmun (diktum) munosabatli predikativ qurilmalar. 2. Subyektiv mazmun (modus) munosabatli predikativ qurilmalar (kiritma va izoh qurilmalar).

Tilshunoslikda gapning asosini tashkil qilgan predikatlariga qarab, bir predikatli va ko'p predikatli gaplarga bo'lish odat tusini olgan. *Chun* bog'lovchisi ishtirok qilgan har qanday gap polipredikativ gaplar sanaladi. *Chun* bog'lovchili polipredikativ gaplarning obyektiv borliqqa munosabati – denotativ voqealarning ifodalanishi, gapga xos bo'lgan predikativlik belgilariga ega bo'lishi, ular orasidagi semantik va sintaktik munosabatlarni hisobga olib, bosh va ergash gapdan iborat ergash gapli qo'shma gap sifatida baholash o'rinli.

Sintaktik o'rin gapdagi predikatni ifodalagan so'zning ma'nosi va, demak, valentligiga ko'ra yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, bosh gapning kesimi vazifasidagi so'zning ma'nosi va valentligi ergash gapning mohiyatini va qo'llanishini ta'minlaydi [Махмудов 1991, 16]. *Chun* bog'lovchili predikativ qurilma sintaktik jihatdan har doim old mavqeda, bosh gapdan oldin qo'llanadi va uning predikati valentligi ma'nosiga ko'ra unga bog'lanadi va ergash gapli qo'shma gaplarni hosil qiladi.

Chun bog'lovchili predikativ ifoda sintaktik jihatdan har doim old mavqeda, bosh gapdan oldin qo'llanadi va uning predikati valentligi ma'nosiga ko'ra unga bog'lanadi va ergash gapli qo'shma gaplarni hosil qiladi. Masalan:

Payt ergash gapli qo'shma gaplar: *Chun yeyildi, Xoja bir qurs manga berdi* [Навоий 2001, 257].

Chun bog'lovchisi payt mazmun munosabatini ifodalaganda *vaqteki* so'zi bilan sinonim sifatida qo'llanishi mumkin. Masalan: *...ul vaqtiki, laduniy ko'zi bila boqsaq, andoqdur va chun g'ayri laduniy ko'zi bila boqsoq, mundoq* [Навоий 2001, 177].

Chun bog'lovchisi payt mazmun munosabatini ifodalaganda ma'nosi *qachon* so'ziga teng keladi: *Yashirin Hoshuqa har qachon vajd yetishsa erdi, rangi oqarur erdi, chun ul vajd taskin topsa, yana ham ul rangiga qaytar erdi* [Навоий 2001, 102].

Ba'zan payt mazmun munosabatlarini yanada reallashtirish

maqsadida bosh gap tarkibida mazmuni payt bilan bog'langan leksik vositalar ham qo'llangan. Masalan: *Chun tafahqus qildilar, hamul kun Horun ar-Rashid o'tub erdi* [Навоий 2001, 486].

Payt ma'nosini oydinlashtirish uchun bosh gapda payt ma'nosini bildiruvchi *ul vaqt* birikmasi qo'llanadi: *Chun qonun va chag'ona nolasi quloqqa tushgay va mahvashi soqiy yukunub, may oyoqqa tushgay, ul vaqt zuhudu taqvog'a ne e'tibor va xushu xiradg'a ne ixtiyor* [Навоий 2011, 31].

Chun bog'lovchili gapda o'tgan zamon aniqlik maylidagi fe'l bilan birga ba'zan ersa to'liqsiz fe'li qatnashishi mumkin: *Chun otti ersa, barcha gunohlaridin pok bo'ldi va gunohlari to'kuldi* [Навоий 2000, 304]. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turganidek, payt ma'nosi *-sa erdi* yoki *-di ersa* bilan ifodalanganda, fe'ling predikativlik belgilari almashinib turadi.

Ba'zi o'rinlarda *chun* bog'lovchisi qo'llangan payt mazmunli gaplarning kesimida turkiy payt ma'nosini ifodalovchi grammatik shakllar qo'llanganligi ham kuzatiladi. Bunday hollarda payt mazmuni bevosita turkiy grammatik shakl yordamida shakllantirilgan, *chun* bog'lovchisining o'rni esa mavjud payt ma'nosini kuchaytirish, ya'ni uning yuklamalarga xos xususiyati bo'rtib turadi. Shuning uchun bunday gaplarni analitik tipda shakllangan gap qoliplari emas, balki, yuqorida ta'kidlanganidek, boshqaruv munosabatidan tuzilgan qo'shma gaplar sifatida qarash to'g'ri bo'ladi: Masalan: *Chun Vaqqos bu ikki o'qni otmoqdin so'ng, Payg'ambar a.s. aydi: bir o'q Xudoyi taoloning nomi uchun otqil*. [Навоий 2000, 305]. Yana bir misol: *Chun burung'i matla' aytilg'onda, alar hazratig'a yiborib, niyoz yuzidin arz qilib, tatabbu qilurg'a istijoda qilib erdi* [Навоий 1999, 37].

Sabab ergash gapli qo'shma gaplar: *Chun o'kurmak muqobalasida forsiy tilda lafz yo'qtur, forsiy shoir muningdek g'arib mazmun adosidin mahrumdur* [Навоий 2000, 15]. Ushbu gapda fors shoirlarining ma'noni ifodalay olmasliklariga sabab forsiy tilda *o'kurmak* so'zining yo'qligidir.

Ba'zan *chun* bog'lovchisi bosh gap tarkibida qo'llangan turkiy qurilmalar bilan birga qo'llanib sabab mazmunini kuchaytirishda ishtirok etgan. Bunday gaplarda ham asosiy sabab ma'nosi turkiy ko'makchili qurilmalar yordamida yuzaga chiqariladi. Ular quyidagilar:

1. *Aning uchun* birikmasi: *...chun sanga kelmak bizga Haq s.t.g'a mashg'ulluqlardindur, aning uchun Tengridin ayriluqqa uzr qo'lmasbiz* [Навоий 2001, 91].

2. *Bu sababdin* birikmasi: *Chun Hom Nuh alayhissalomg'a*

beadabliq qilg'on jihatidin aning muborak tiliga Hom borasida qarg'ish o'tub erdi, bu sababdin anga rangi bayozi savodg'a mujarrad bo'lub,...fasohat va balog'at hulyasidin oriy qoldi [Навоий 2000, 11].

3. Ul jihatdin birikmasi: Chun qochib kelgan kishi hanuz ko'rinmaydur erdi, ul jihatdin hanuz ul bobda hech nav' hukm voqe' bo'lmadi [Навоий 2000, 167].

4. Ul munosabat bila birikmasi: Chun mulkdin ba'zi aqolim va kishvarda sort salotini mustaqil bo'ldilar, ul munosabat bila forsiyo' shuaro zahur qildilar [Навоий 2000, 35].

Ba'zan bosh va ergash gaplarning sabab mazmunidan tashqari yondosh ma'nolar ham anglashiladi:

Chun bog'lovchili tobe komponent ham sabab, ham payt ma'nosiga ega bo'ladi: Chun Iskandar xiroj yubormadi, Doro kishi yiborib, ming oltun bayzani tilatti [Навоий 2000, 214].

Sabab ergash gap birdan ortiq holda qo'llanganligi ham kuzatiladi: Chun bu fan ahli forsiyo'yudurlar va turk alfozidin bahramand emaslar, tab'i ul jonibdin e'roz qilib, bu fang'a mashg'ul el sari mayl ko'rguzur [Навоий 2000, 24]. Bu gap ... u fan ahli forsiyo'yudurlar, turk alfozidin bahramand emaslar, shuning uchun ... tarzida transformatsiya qilinishi mumkin. Quyidagi gapda ham sabab-natija ma'no munosabati ifodalangan: Chun bu tariqda himmat oliy erdi va tab' bebok va louboliy, o'targ'a qo'ymadi va tamoshasidin to'ymadi [Навоий 2000, 25].

Shart ergash gapli qo'shma gaplar: Chun qorin ochlig'i, ya'ni bo'shlig'i zohir bo'lsa, ani oshlig' va hubub bila to'la qilurlar [Навоий 2001, 497].

Chun bog'lovchisi shart mazmunli ergash gaplarni bosh gapga bog'laganda, agar bog'lovchisiga ma'nodosh bo'lishi mumkin: Chun ul eltsa, yermoq oladur va agar ul yigit eltsa, silli uradurg'on ko'rgungdur [Навоий 2001, 336]. Solishtiring: Va agar osiy bo'lsa, e'tiroz qilg'ay, va chun e'tiroz qilg'ay, qabul tushgay [Навоий 2001, 404]. Chun ul eltsa, yermoq oladur va agar ul yigit eltsa, silli uradurg'on ko'rgungdur [Навоий 2001, 336]. Aytish mumkinki, bu tipdagi gaplarda chun, agar bog'lovchilari shart mazmunini yuzaga keltirishda qatnashadi. Ergash gaplarning predikatida qo'llangan – sa shart mayli affiksi qo'shma gapning turkiylashgan shakli sanaladi.

Qo'shma gaplarning predikatlarining umumiy mazmuni asosida anglashiladigan shartlik ma'nosi quyidagicha hosil qilingan:

1. Chun sen bular mamlakatin har qoysini zaruratan birovg'a bergungdur, avval o'zlariga o'q tarbiya berib, o'z qoshingdin bularni mulkka nasib qilib qo'yg'aysenkim... [Навоий 2000, 218].

2. *Chun bu firoq shiddatidin tahrir o'jiz va bu ishtiyoq suubatidin tahrir qosirdur, xoma tili ravonlig'idin ne foyda va til xomasi gavhar fishonlig'idin ne natija?* [Навоий 2000, 210].

3. *Chun bog'lovchisi ishtirok qilgan ergash gapli qo'shma gaplarning predikati -gay, -kay, -g'ay, -qay kelasi zamon affikslari bilan qo'llanganda, bog'lovchili tobe komponent amalga oshmagan mo'ljal, orzu kabi irreal ma'nolarni ifodalaydi. Shuning uchun bunday gaplarni shart ergash gapli qo'shma gap sifatida o'rgandik. Masalan: Chun muborak nazarlari tushgay, isloh bila mutarraf bo'lg'ay* [Навоий 2000, 168]. *Biror-bir ish-haraktning yuzaga kelishi orzu qilingan, mo'ljallangan maqsad kabi mazmuniy munosabatlarni ifoda qiladi: Chun ogoh bo'lgay, hayotidin toriqqay va uyot dudi dimog'idin chiqqay...* [Навоий 2011, 44].

Ba'zan shart ergash gapli qo'shma gaplarni belgilashda predikatlarning mazmuni asos bo'lishi mumkin. Masalan: *Chun bu baytlarni bu fan bila mezon qilib, mavzunini nomavzundan ayururlar, go'yoki, qiymat va bahosi ma'lum bo'lur, bu munosabat bila «aruz» debturlar* [Навоий 2000, 46]. Ushbu gapni quyidagicha tushunish lozim: *bu baytlarni ...o'lchab, mosini nomosidan ayirsalar, (aytishlaricha) qiymat bahosi ma'lum bo'ladi.*

Predikatlarning biri bo'lishsiz shaklda qo'llansa, to'siqsizlik ma'nosi ham anglashiladi: *...chun ko'ngillar o'lgay, aning ko'ngli o'lmagay* [Навоий 2001, 125].

Chog'ishtirish va o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplar:
Bunday ergash gapli qo'shma gaplarning mazmuniy asosini qiyoslash munosabati tashkil etadi. *Chun bog'lovchisi o'xshatish ergash gaplarning bosh gapi predikatida -dek affiksi qo'llangan: Chun bu tavr davlat muyassar bo'ldi va bu nav' saodat yuz ko'rguzdi, quyosh otashi burjig'a taqvil qilg'ondek...* [Навоий 2001, 206].

Chun bog'lovchili kiritma konstruksiyalar

Chun bog'lovchili kiritma konstruksiyalarning subyektiv mazmuni bilan bog'liq talqinlar til tarixiga oid ishlarda qayd etilgan [Аширбоев 1990, 26], ammo maxsus o'rganilmagan. Bu bog'lovchili predikativ qurilma ifodalagan mazmuniy munosabat, asosan, denotativ voqeani shakllantirib turgan sintaktik shakllarni mazmunan to'ldirish, aniqlashtirish, izohlashdan iborat. Bu sintaktik konstruksiyalar tilshunoslikda izoh iboralar, kiritma iboralar yoki kiritma konstruksiyalar nomi bilan yuritiladi [Аширбоев 1990, 28].

Ma'lumki, izoh va kiritma konstruksiyalar gap shaklida qo'llanadi va gapga xos predikativlik belgilarga ega bo'ladi.

Bunday kiritmalar ma'lum bir sintaktik pozitsiyada kelmaydi, ya'ni *chun* bog'lovchili predikativ qurilmalar obyektiv va subyektiv mazmun ifodalashiga ko'ra farqlanib qoladi. Subyektiv mazmuniy munosabatli sintaktik shakllar gap bo'lagi sifatida ajratilmaydi. Uning bu xususiyati nazariy adabiyotlarda predikativ qurilma ichida kelgan predikativ qurilmalar sintaktik ortiqchalik tamoyili asosida yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Ammo yuqorida aytilganidek, kiritma xarakterida kelgan predikativ qurilma asosiy gap tarkibidagi ma'lum bir gap bo'lagi yoki predikat mazmuni bilan bevosita bog'liq munosabatlarni ifoda qiladi. Bu munosabat uning mazmuniy tuzilishi bilan bevosita bog'liq. Shu sababli kiritmani ham shakli (sintaktik), ham mazmuniy (semantik) planda o'rganishni maqsadga muvofiq. Demak, morfologik shakl sifatida *chun* bog'lovchisi polipredikativ gaplarda – biror bir mazmuniy munosabatni: payt, sabab, shart, to'siqsizlik ma'no munosabatlarini ifodalashdan tashqari boshqa mazmuniy qirrasini – subyektiv modallikni ko'rsatuvchi vosita ekanligiga diqqatni qaratish lozim bo'ladi.

Ma'lumki, hozirgi o'zbek adabiy tilida kiritmalarni asosiy gapdan ajratishning bir necha usuli mavjud: aksariyat hollarda ular vergul, qavs, yoki tire ichiga olinadi. Qadimgi manbalarda, xususan, arab yozuvida bitilgan o'zbek tili tarixiga doir manbalarda tinish belgilari yoki boshqa punktuatsion belgilar qo'llanmagani uchun kiritmalar asosiy gapdan maxsus ohang, leksik, grammatik vositalar yordamida ajratilgan. Alisher Navoiyning nasriy asarlarida ham izoh va kiritma qurilmalar hozirgi o'zbek tilidagi singari intonatsiya (shunga muvofiq matnda turli tinish belgilari) vositasida ajralib turmaydi, balki gapdagi ma'lum bo'lakka *-kim//ki* vositalari yordamida bog'lanadi. Bu xususiyat faqat o'zbek tili tarixiy yodgorliklariga emas, balki boshqa turkiy tillar tarixiga, jumladan, ozarbayjon tili tarixiga ham xosdir [Садихов 1988, 48].

Yig'ilgan misollarning tahlili shuni ko'rsatadiki, *chun* bog'lovchisining kiritmalarni asosiy gapdan ajratish xususiyatiga ko'ra *-kim/ki* bog'lovchi vositalari qatoriga kiritish mumkin [Аширбоев 1990, 240]. *Chun* bog'lovchili kiritmalar denotatlar tarkibidagi sintaktik shakllar bilan sintaktik aloqaga kirishmasada, ularni izohlab, to'ldirib semantik yaxlitligini ta'minlashda ishtirok etadi. Denotatlarning subyektiv mazmunidan iborat *chun* bog'lovchili sintaktik konstruksiyalar (moduslar) gap bo'laklaridan keyin qo'llanib, ularga xos modal munosabatlarini ifodalagan:

-egani izohlaydi: *Tabbox chun mutanabbih bo'lmaydur, o'zin qazong'a tashlabdur va o'lturubdur* [Насоуї 2001, 104];

-gapda qo'llanmagan, avvaldan ma'lum bo'lgan implitsit egani izohlaydi (bunday predikativ qurilmalar – kiritmalarda ega qo'llanishi mumkin): *Muddate chun o'tti, chun Muhammad Abdulloh Gozuriy-Hiraviy maorif va nosoyihni muassir aytur erdi va dunyo tarkiga dalolat qilur erdi va el ko'ngliga asar qilib, dunyo ishidin ilik tortarlar edi, Xoja Abdulloh Ani shahrdin uzr qo'ldi...* [Haboũ 2001, 238];

- o'rin kelishigidagi vositali to'ldiruvchini izohlaydi: *Ta'arrif sharhida andoq mazkur ermishki, Haq s.t. ta'zimi anga andoq g'olib ermishki, chun namozda turar ermish va avvalgi takbirda, chun «Alloh» der ermish, «Akbar» demakdin burun behush bo'lur ermish va yiqulur ermish* [Haboũ 2001, 197];

- chiqish kelishigidagi vositali to'ldiruvchini izohlaydi: *Ul bu so'zdin, chun zoti javhari bor erdi, g'aflat uyqusidin seskanib, o'z qilig'i tegrasiga uyurulub, mustahsan atvor tutub, marzi axloq pesha qildi* [Haboũ 2000, 229];

- chiqish kelishigidagi uyushgan vositali to'ldiruvchilarning birini izohlaydi: *... ul Hazratning muttaha ruhi aning ul azimatidan va yo'lranji tortqondin, chun voqifdur, va Madinag'a yetkandin so'ngra dog'i his bila ul Hazratning ravzasini ko'rsa va zohir va botin bila mutavajjih bo'lsa, munung foydasig'a aning foydasi bila ne nisbatdur?* [Haboũ 2001, 307];

- vositasiz to'ldiruvchini izohlaydi: *Va Bahromning taxtni qo'yub, musofarat tariqi bila Hindistong'a borg'onin ham, chun g'aroyibi umurdundur, mujmalan bayon qiloli* [Haboũ 2000, 236];

- o'rin kelishikdagi holni izohlaydi: *Bir o't paydo bo'libdur va masjidqa, chun yig'ochdin erkandur, tutashibdur* [Haboũ 2001, 241];

- ko'makchili payt holini izohlaydi: *Bu muddatdin so'ngra, chun majoziy mamlakatig'a zavol bo'ldi va har lahzada mulk va xidamu hashami haboan mansran bo'lur erdi va dunyo ishi tamom mening ko'nglumda sovudi, Buxorog'a keldim* [Haboũ 2001, 260];

- qaralmishni izohlaydi: *Tahmuras atosi Xushangning, chun valiahdi erdi, aning o'rnida saltanat taxtig'a o'tturdi va xaloyiq rioyatig'a va mamolik himoyatig'a jidd bila mashg'ul bo'ldi* [Haboũ 2000, 198];

- sifatlovchi aniqlovchini izohlaydi: *Qasidada Hoqoniy va Anvari va Kamol Ismoil va Zohir va salmondek va masnaviyda ustoz fan Firdavsiy va nodiri zamon Shayx Nizomiy va Joduyi Hind Mir Xisravdek va g'azalda muxtarii vaqt Shayx Muslihiddin Sa'diy va yagona asr Xoja Hofizdekki, chun shammai surulupdur va vasflarig'a qalam urulupdur, so'zni uzatmoq hojat ermas* [Haboũ 2000, 35].

Chun bog'lovchili izoh va kiritma qurilmalar biror-bir ish-harakatning yuzaga kelishi bilan bog'liq qo'shimcha mazmuniy munosabatlarni ifodalaydi. Bunday qurilmalar:

- ravishdoshlardan so'ng qo'llanadi: *Barcha so'g'vorlik libosida, balki motam va azo balosida, to ulki, hazrati sultoni sohibqiron ... tashrif kelturdilar; hoy-hoy yig'lab va talx-talx sho'robalar to'kub, bir zamon o'lturub, Mavlono Ziyovuddin Yusufni shafqat yuzidin quchib, muddate boshin quynida asrab, yig'lab, soyir as'hobg'a ko'ngil berib, bu faqirni sohib azo tutib, holumg'a dilso'zluqlar bilan ashk to'kub, nasoyih va mavoiz durbor alfozlaridin zohir qilib, chun muborak mijozlarida za'f bor erdi, xilofat taxti va saltanat masnadi azimati qildilar va sultonzoalarni va arkoni davlatni barchasin anda alarning ko'tarur ishiga qo'yдилar [Hабouў 1999, 78];*

- kelishik qo'shimchasi bilan qo'llangan sifatdoshdan so'ng qo'llanadi: *Vafot qilurda, chun Shopur o'g'li kichik erdi, saltanatni inisiga berdikim, o'g'li ulg'aysa, anga bergay [Hабouў 2000, 232];*

- kelishik qo'shimchasi va ko'makchi bilan qo'llangan sifatdoshlardan so'ng: *Andoqki, atibbo da'bidurki, mariz mijozida marazni zoyil qilg'ondin so'ngra, chun adno xilt jild taxtida qolur, taraddud va dolk buyururlarki, ul mavodni tahlil bila daf qilg'ay, ul dag'i bu faqirg'a buyurub erdi [Hабouў 1999, 115].*

Chun bog'lovchili kiritmalarni diktum voqea (propozitsiya) larning tarkibini murakkablashtirishiga ko'ra ikkiga ajratdik:

1. Sodda gap tarkibini murakkablashtiradi: *Va Bahromning taxtni qo'yub, musofaroat tariqi bila Hindistong'a borg'onin ham, chun g'aroyibi umrdindur, mujmalan bayon qiloli [Hабouў 2000, 236]. Va Bal'am ham ul maqtullar orasida, chun islom tarkin qilib erdi, do'zax azimati qildi [Hабouў 2000, 149].*

2. Qo'shma gap komponentlari tarkibidagi denotatlarning biri tarkibini murakkablashtiradi: *Ul shahrg'a yetkondin so'ngra, chun yuz yil o'tkan jihatidin ko'p tag'yir topib erdi, hech yerni tonimay, ko'p zahmat bila o'z saroyini topdi [Hабouў 2000, 172].*

Hozirgi o'zbek tili materiallarida kiritma qurilmalarning asosiy xususiyati uning yig'iq (kesimdangina iborat) bo'lmasligi ta'kidlanadi [Курбонова va b. 2004, 108]. Eski o'zbek tili materiallariga asoslanib, aytish mumkinki, *chun bog'lovchili kiritma qurilmalar tuzilishiga ko'ra so'z shakli (faqat kesim shakli), so'z birikmasi, sodda va qo'shma gap qolipida qo'llanishi mumkin. Bir bosh bo'lakli kiritmalarda ega bevosita kesim shaklidan anglashilaveradi.*

1. Sodda gap qolipidagi kiritmalar: *Andin so'ngra uch ibriq suv*

indiki, chun andin ichduk, lazzatu halovatda dunyoda ichgan suvlarg'a o'xshamas erdi [Habouï 2001, 496]

2. Qo'shma gap qolipidagi kiritma qurilmalar. Qo'shma gap qolipidagi sintaktik birliklar sifatida ikki va undan ortiq predikativ qurilmadan iborat gaplar nazarda tutildi: *Ul shahrg'a yetkondin so'ngra, chun yuz yil o'tkan jihatidin, ko'p tag'yir topib erdi, hech yerni tonimay, ko'p zahmat bila o'z saroyini topdi [Habouï 2000, 172].*

Izoh va kiritma qurilmalarning mazmuniy va tarkibiy xususiyatlarini o'rganish jarayonida jumlaning murakkablashuvi bilan bog'liq boshqa sintaktik hodisaga duch kelindi. U ham bo'lsa sintaktik takrorlardir. Sintaktik takrorlar substantiv va substitutlarning qo'llanishi bilan hosil qilingan. Masalan: *Tahmuras atosi Xushangning, chun valiahdi erdi, aning o'rnida saltanat taxtig'a o'lturdi va xaloyiq rioyatig'a va mamolik himoyatig'a jidd bila mashg'ul bo'ldi [Habouï 2000, 198].* Xushang predikatning aktantlaridan bo'lgan o'rin holi pozitsiyasidagi substitut aning bilan oppozitiv xarakterga ega.

Chun bog'lovchili gaplarning kommunikativ xususiyati

Tahlilga tortilgan misollardan ma'lum bo'ladiki, *chun* bog'lovchisi gaplar turli o'rinlarda (gap bo'laklari orasida) qo'llana olgan, ya'ni gap boshida, egadan oldin va keyin, kesim oldida, ikkinchi darajali bo'laklardan keyin qo'llanishi mumkin bo'lgan. Uning bu xususiyati muayyan bir gapning mazmun planini belgilashda ishtirok etgan bo'lishi kerak, degan farazni qo'yishga asos bo'ldi va buni sintaksisning kommunikativ aspekti nuqtayi nazaridan yondashib hal qilishga olib keldi. Kommunikativ aspekt gap ifodalagan obyektiv mazmun elementlarining ahamiyatlilik darajasini belgilash, darak, so'roq, buyruq ifodalashni o'z ichiga oladi [Гурмонов va b. 1992, 94] va ularni o'rganishda kommunikativ (aktual) vazifa nuqtayi nazaridan jumlani tashkil etuvchi elementlar tema (ma'lum) va rema (yangi) qismlarga bo'linadi.

Aksariyat hollarja *chun* bog'lovchisi jumlaning boshida qo'llanadi va jumlaning to'laligicha rema ekanligiga dalolat qiladi. Masalan: *Chun o'zonlarning o'zmog'i va o'zbaklarning badi budoyi hech vazn bila rost ermas erdi, anga taarruz qililmadi [Habouï 2000, 94].* Demak, jumla faqat yangidan iborat. Bu gap uchun tema vazifasini undan oldin qo'llangan jumla bajaradi.

Paradigma a'zosi sifatidagi jumlaning xarakteristikasi ushbu jumlaning sintagmadagi o'rni bilan bog'liq. Paradigmaning dastlabki a'zosida aktual bo'linish sintaktik bo'linishga mos keladi: tema

egaga (ega guruhiga) mos keladi, rema – kesimga (kesim guruhiga) [Ковтунова 1976, 36]. Bu hodisa чун bog'lovchili jumalarda ham kuzatiladi. Masalan: *Ozarmido'xt chun podshohliqqa o'lturdi, kishini vazir qo'ymadi va mulk ishin o'z tadbir va royi bila yasamoq muqarrar qildi* [Hабouў 2000, 252] *Dorob chun Humoy o'rnig'a taxtqa o'ltirdi, adl va dod pasha qildi* [Hабouў 2000, 213]. Ushbu gapda *chun* vositasi quyidagi kommunikativ vazifalarni bajarmoqda. Birinchidan, muallifning o'quvchiga «yangi» xabar, *podshoh bo'ldi, qo'ymadi, muqarrar qildi* (birinchi gapda), *taxtqa o'lturdi, pasha qildi* (ikkinchi gapda) berishi remaga xos aktuallik kasb etgan bo'lsa, ikkinchidan, jumlaning aktuallashtiruvchi ikkinchi elementi «ma'lum» *Ozarmido'xt va Dorob* tema bo'lib kelgan. *Chun* vositasi gapda aktuallashtiruvchi vosita sifatida mantiqiy urg'u olgan bo'lak – rema qismini *podshoh bo'ldi, qo'ymadi, muqarrar qildi* (birinchi gapda), *taxtqa o'lturdi, pasha qildi* (ikkinchi gapda) ta'kidlab, tema va remalarni ajratish funksiyasini bajargan. Bu gapda tema va remaning sintaktik bo'linish bilan mos kelishini kuzatamiz.

Mazmuniy sintakisda predikat (grammatik kesim) gapning asosi, yadrosini tashkil qilganidek, jumlaning rema qismi kommunikativ eng ahamiyatli qism – kommunikativ markaz hisoblanadi. Gap o'zining kommunikativ markazi sanalgan remasiz bo'lishi mumkin emas. Unda remaning bo'lishi shart. Jumlaning tematik markazi kontekstdan «ma'lum» bo'lsa eksplitsit ifodalangan bo'lmasligi ham mumkin. Bunday gaplarda yangining ishtiroki zaruriy, biroq ma'lumning ishtirok etishiga zaruriyat sezilmasligi mumkin. Bu hol ko'proq shaxsi ma'lum gaplarda kuzatiladi: *Chun muroqaba qildim, aning ruhini illiyyinda toptim, oliy maqomda munajat qildim* [Hабouў 2001, 310]; *ko'plikda – Chun Injilg'a yaqin yettuk, birav yo'luqti* [Hабouў 2001, 317].

Egasi ishtirok etgan gaplarda aktual bo'linish paradigmasining bosh a'zosi sintaktik bo'linish bilan mos keladi: sintaktik tuzilish egasi (yoki ega guruhi) aktual bo'linish temasi, sintaktik tuzilish kesimi (yoki kesim guruhi) aktual bo'linishning remasi bo'lib keladi, ya'ni ega va ega guruhining oldin kelishi, kontekst shart-sharoitidan qat'i nazar, tema-rematik munosabatni ko'rsatishga eng muvofiq holat sanaladi. Bunday gaplarda sintaktik bo'linish (ega-kesim) va aktual bo'linish bir-biriga mos keladi va sintaktik ega-kesim va aktual bo'linishda muvofiqligi uchun adabiyotlarda bu holat kontekstual yoki sintagmatik mustaqil jumlar deb ham yuritiladi [Ковтунова 1976, 100]. Masalan: *Qinon binni Anush chun otasi o'rnig'a o'lturdi, ba'zi Susni, ba'zi Bobilni, debturlarkim, ul imorat qildi* [Hабouў 2000,

103].

Gapning aktual sathida uslubiy ahamiyatli sanalgan nutq shaklining mantiqiy qurilishi, kommunikativ maqsadning tayanch nuqtasi gap boshida qo'llanadi. *Chun bog'lovchisi* esa mantiqiy urg'uli tayanch bo'lakdan so'ng qo'llangan. Masalan: *Kayxisravni chun Kayu Turon zamindin kelturdi, Eronda saltanat taxtig'a o'lturdi* [Habouï 2000, 207]. Misoldan ko'rinib turibdiki, ushbu gapda bog'lovchining qo'llanishi odatdagi tartibdan farq qiladi: *Kayxisravni tema, Kayu Turon zamindin kelturdi* rema sanaladi.

Kontekstda bayon qilinayotgan fikr axborot temasining o'zgarishi bilan tema-rematik munosabatlari ham o'zgaradi va jumalarda *chun bog'lovchisining o'rni* ham o'zgaradi. Shunga ko'ra Alisher Navoiyning nasriy asarlarida sintaktik va aktual bo'linishdagi farq, nomuvofiqlikni belgilashga asos bo'ladi:

1. Qaratqich va qaralmishdan iborat sintaktik qurilmaning *chun bog'lovchisi* yordamida aktual bo'linishi ta'minlangan. *...debturlarkim, uyning chun binosi to'rt rukn biladur, bu baytning ham binosi to'rt rukn biladur...* [Habouï 2000, 46]. Mazkur gapda yangi axborot predmeti – tema uyning, gapning asosiy kommunikativ maqsadi uy haqida ma'lumot berishdan iborat. Mantiqiy urg'u olgan bino so'zi va boshqa kesim guruhiga kiruvchi so'zlar esa rema bo'lib kelmoqda.

2. Vositasiz to'ldiruvchidan so'ng *chun bog'lovchisi* qo'llanganda, to'ldiruvchi tema bo'lib keladi: *Alarni chun mundoq xushhol ko'rdim, ayttikim...* [Habouï 1999, 57]. Ushbu gapda alar jumla predmeti, aktuallanuvchi bo'lak, ya'ni tema, kesim guruhi esa mundoq xushhol ko'rdim rema sanaladi.

3. Sifatlovchi-sifatlanmishdan iborat vositali to'ldiruvchidan so'ng jumlaning aktual bo'linishi ta'minlangan: *Ul hazratqa chun ravshan bo'lub erdi, inkor qila olmadim* [Habouï 2001, 209]. Bu gapda ham axborot temasi Ul hazratqa, kesim esa rema sanaladi.

4. Hol funksiyasida kelgan so'z tema, undan so'ng qo'llangan jumla rema bo'lib kelgan: *Tonglasi chun ani chiqardilar, qilg'on tadbiridin voqif bo'ldilar.* [Habouï 2000, 247]. Jumlada tonglasi so'zi tema, mantiqiy urg'u olgan kesim guruhi ta'kidlanuvchi qism remadir.

Xulosa

Chun/chu bog'lovchisi o'zbek tiliga fors tilidan kirib kelgan va eski o'zbek adabiy tilida uslubiy me'yor sifatida faol qo'llangan. *Chun bog'lovchisi* eski o'zbek tilida fors tiliga xos sintaktik qurilmalarni

shakllantirishda ishtirok etgan.

Chun bog'lovchili sintaktik qurilmalarning predikati asosan fe'lining o'tgan zamon shakli qo'llangan. *Chun* bog'lovchili sintaktik tarkib predikati turkiy sintetik vositalar – fe'l shakllari, shart, buyruq mayllari hamda sifatdosh+ko'makchi shaklida ham qo'llangan.

Chun bog'lovchili forsiy qolipli gaplar turkiy qolipli gaplarga sinonim bo'la olgan, chunki bunday gaplar shaklan va mazmunan har ikki tilga xos xususiyatlarni aks ettiradi.

Chun bog'lovchili predikativ qurilma ergash gapli qo'shma gapning tobe komponenti sifatida keladi va u *chun* bog'lovchisi bilan qo'llangan gaplar asosan, payt va sabab mazmun munosabatidan iborat. Shuningdek, shart, to'siqsizlik, natija, o'xshatish kabi mazmun munosabatlarini ham ifoda qilgan.

Kiritmalar jumladagi biror-bir sintaktik bo'lakdan keyin kelib, uni mazmunan boyitadi, u haqda yangi ma'lumotlar beradi va rema sanaladi. Bunday gaplarda tema haqida yangi – remalar birdan ortiq qo'llanadi. Ya'ni *chun* bog'lovchili kiritma – yangi rema va jumlaning sintaktik bo'linishi bilan bog'liq bo'lgan tema – rematik bo'linish.

Adabiyotlar

- Абдурахмонов, Ф. 1982. *Қадимги туркий тил*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Абдурахмонов, Ф. 1974. *Тарихий синтаксис*. Тошкент: Фан.
- Абдурахмонов, Ф., Шукуров, Ш. 1973. *Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Абдусаматов, М. 1977. *Форс тили*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Аттор, Шайх Фаридуддин. 2005. *Илоҳийнома*. Тошкент: Мусиқа.
- Аширбоев, С. 1990. *Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари*: Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент.
- Бобур. 1989. *Бобурнома*. Тошкент: Юлдузча.
- Фозилов, Э. 1965. *Ўзбек тилининг тарихий морфологияси*. Тошкент: Фан.
- Гаджиева, Н.З. 1973. *Основные пути развития синтаксической структуры тюркских языков*. Москва: Наука.
- Ганжавий, Низомий. 2005. *Лайли ва Мажнун*. Техрон: Ал-Худо.
- Казмин, В.В. 1983. *Предикативная единица и ее синтаксические функции в простом предложении*. Кубан: КПИ.
- Ковтунова, И.И. 1976. *Современный русский язык*. Москва: Наука.
- Матгазиев, А. 1966. *История развития подчинительных союзов в узбекском языке*: Автореферат на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Ташкент.
- Маҳмудов, Н. 1991. *Эргаш гапларнинг табиати ва таснифи масаласи*. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. Тошкент.

- Навой, Алишер. 1996. *Лисонут тайр*. Тошкент: Фан.
- Навой, Алишер. 2011. *Маҳбул қулуб*. Тошкент: Ғафур Ғулом.
- Навой, Алишер. 2000. *Муҳокаматғул луғатайн*. Тошкент: Фан.
- Навой, Алишер. 2001. *Насойимул муҳаббат*. Тошкент: Фан.
- Навой, Алишер. 2000. *Рисолаи тир андохтан*. Тошкент: Фан.
- Навой, Алишер. 1992. *Сабъаи Сайёр*. Тошкент: Фан.
- Навой, Алишер. 2000. *Тарихи анбиё ва ҳукамо*. Тошкент: Фан.
- Навой, Алишер. 2000. *Тарихи мулуки ажам*. Тошкент: Фан.
- Навой, Алишер. 2011. *Фарҳод ва Ширин*. Тошкент: Ғафур Ғулом.
- Навой, Алишер. 1999. *Хамсатул мутаҳайирун*. Тошкент: Фан.
- Навой, Алишер. 1999. *Ҳолоти паҳлавон Муҳаммад*. Тошкент: Фан.
- Нурмонов, А. 1988. *Тилни системали ўрганиш ва синтаксиснинг айрим мунозарали масалалари*. Ўзбек тили ва адабиёти журнапи. Тошкент.
- Нурмонов, А., Маҳмудов, Н., Аҳмедов, А., Солихўжаева, С. 1992. *Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси*. Тошкент: Фан.
- Қурбонова, М., Сайфуллаева, Р., Боқиева, Г., Менглиев, Б. 2004. *Ўзбек тилининг структурал синтаксиси*. Тошкент: ЎЗМУ.
- Раҳмонов, М. 1971. *Синтаксичекие особенностии языка газетии «Туркистон вилоятининг газетии»*: Автореферат на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Ташкент.
- Рустамов, А., Каримов, К., Умаров, З. 1975. *Форча-ўзбекча ўқув луғатии*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Садыхов, А.Ш. 1988. *Исторический синтаксис азербайджанского языка (На метериале памятников прозы)*. Автореферат на соискание ученой степени доктора филологических наук.
- Солихўжаева, С. 1988. *Пайт эргаши гапли қўшма гаплар тараққиётии*. Ўзбек тили ва адабиёти журнапи. Тошкент.
- Воҳидов, Э. 1986. *Муҳаббатнома*. Ғафур Ғулом.
- Щербак, А.М. 1962. *Грамматика староузбекского языка*. Москва, Ленинград: АН СССР.
- Черемисина, А., Колосова, Т. 1987. *Очерки по теории сложного предложения*. Новосибирск: Наука.
- XV-XIX асрлар ўзбек тили морфологияси*. 1990. Тошкент: Фан.
- حسن انورى. س. ۲۱۳۱ فرهنگ بزرگ سخنى، تهران.
محمد مُعين. س. ۵۷۳۱ فرهنگ فارسى، تهران.

Qisqartmalar

Тб. – Тўнюкүк битиктоши.

Ктб. – Култегин битиктоши.

БХб – Билга хоқон битиктоши.

БН. – Бобурнома.

Нав. «ФШ» – Алишер Навоий «Фарҳод ва Ширин».

Нав. «СС» – Алишер Навоий «Сабъаи сайёр»

Mardon Rahmatov

(Tashkent, Uzbekistan)
mardonrahmat@gmail.com

The role of the Connector in the Development of the Uzbek Language Syntax

Abstract

The remains relevant use of grammatical forms specific to other systems' lan-guages, their syntactic formulas specific to that language, and how they express different meaningful relationships to that language. This article explores the history of the use of the conjunction “chun” , its role in the development of the Uzbek language, based on the achievements of modern linguistics. In particular, the linker has formulated both the dicta-tive and the subjective (modus) expressions, and the expressive meaning has been used as a dependent component of the sentence. It has been revealed that subordinate expres-sions express meaningful relationships such as cause, time, condition, and conjunction, and when subjective content is used as a complementary sentence.

Also, the ability of the binder to be able to be used in the sentence, between different parts of the sentence, is another indication of this. This problem has been studied in terms of the grammatical content of the sentence, that is, from the perspective of the communica-tive aspect of syntax. The analyzed language materials clarify the development of the syntac-tic structure of the Uzbek language and serve as a source for its study. The conclusions and the scientific bases provided help to properly understand the meaning of the conjunction “chun”, which is found in modern Uzbek translations of classical and modern Persian litera-ture.

Key words: *union, morphological form, syntax, sentence, complex sentence, dependent sentence, intro-ductory words, insertion sentences, actual division, tema, rema.*

About the author: *Rahmatov Mardon Mekhmonovich* – Doctor of Philosophy in Philology, Docent of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

Recommended citation: Rahmatov, Mardon. 2020. “The Role of the Connector in the Development of the Uzbek Language Syntax”. *Golden Scripts* 3: 54—74.

References

- Abdurahmonov, G'. 1982. *Qadimgi turkiy til*. Toshkent: O'qituvchi.
- Abdurahmonov, G'. 1974. *Tarixiy sintaksis*. Toshkent: Fan.
- Abdurahmonov, G', Shukurov, Sh. 1973. *O'zbek tilining tarixiy grammatikasi*. Toshkent: O'qituvchi.
- Abdusamatov, M. 1977. *Fors tili*. Toshkent: O'qituvchi.
- Attor, Shayx Fariduddin. 2005. *Ilohiynoma*. Toshkent: Musiqa.
- Ashirboev, S. 1990. *Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi sodda gaplarning tarkibiy va ma'no xususiyatlari*: Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent.
- Bobur. 1989. *Boburnoma*. Toshkent: Yulduzcha.
- Fozilov, E. 1965. *O'zbek tilining tarixiy morfologiyasi*. Toshkent: Fan.
- Gadjieva, N.Z. 1973. *Osnovnie puti razvitiya sintaksicheskoy strukturi tyurkskix yazikov*. Moskva: Nauka.
- Ganjaviy, Nizomiy. 2005. *Layli va Majnun*. Tehron: Al-Xudo.
- Kazmin, V.V. 1983. *Predikativnaya yedinita i yee sintaksicheskie funktsii v prostom predlozhenii*. Kuban: KPI.
- Kovtunova, I.I. 1976. *Sovremenniy russkiy yazik*. Moskva: Nauka.
- Matgaziev, A. 1966. *Istoriya razvitiya podchinitelnix soyuzov v uzbekskom yazike*: Avtoreferat na soiskanie uchenoy stepeni kandidata filologicheskix nauk. Tashkent.
- Mahmudov, N. 1991. *Ergash gaplarning tabiati va tasnifi masalasi*. O'zbek tili va adabiyoti jurnali. Toshkent.
- Navoiy, Alisher. 1996. *Lisonut tayr*. Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 2011. *Mahbubul qulub*. Toshkent: G'afur G'ulom.
- Navoiy, Alisher. 2000. *Muhokamatg'ul lug'atayn*. Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 2001. *Nasoyimul muhabbat*. Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 2000. *Risolai tir andoxtan*. Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 1992. *Sab'ai Sayyor*. Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 2000. *Tarixi anbiyo va hukamo*. Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 2000. *Tarixi muluki ajam*. Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 2011. *Farhod va Shirin*. Toshkent: G'afur G'ulom.
- Navoiy, Alisher. 1999. *Xamsatul mutahayyirun*. Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 1999. *Holoti pahlavon Muhammad*. Toshkent: Fan.
- Nurmonov, A. 1988. *Tilni sistemali o'rganish va sintaksisning ayrim munozarali masalalari*. O'zbek tili va adabiyoti jurnali. Toshkent.
- Nurmonov, A., Mahmudov, N., Ahmedov, A., Solixo'jaeva, S. 1992. *O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi*. Toshkent: Fan.
- Qurbonova, M., Sayfullaeva, R., Boqieva, G., Mengliev, B. 2004. *O'zbek tilining struktural sintaksisi*. Toshkent: O'z.MU.
- Rahmonov, M. 1971. *Sintaksicheskie osobennosti yazika gazetii «Turkiston viloyatining gazetii»*: Avtoreferat na soiskanie uchenoy stepeni kandidata filologicheskix nauk. Tashkent.
- Rustamov, A., Karimov, K., Umarov, Z. 1975. *Forcha-o'zbekcha o'quv lug'ati*. Toshkent: O'qituvchi.
- Sadixov, A.Sh. 1988. *Istoriicheskii sintaksis azerbaydjanskogo yazika* (Na meteriale pamyatnikov prozi). Avtoreferat na soiskanie uchenoy

stepeni doktora filologicheskix nauk.

Solixo'jaeva, S. 1988. *Payt ergash gapli qo'shma gaplar taraqqiyoti*. O'zbek tili va adabiyoti jurnali. Toshkent.

Vohidov, E. 1986. *Muhabbatnoma*. G'afur G'ulom nashriyot.

ИҶербак, А.М. 1962. *Grammatika starouzbekskogo yazika*. Moskva, Leningrad: AN SSSR.

Cheremisina, A., Kolosova, T. 1987. *Ocherki po teorii slojnogo predlojeniya*. Novosibirsk: Nauka.

XV-XIX asrlar o'zbek tili morfologiyasi. 1990. Toshkent: Fan.

حسن انوری. س. ۲۱۳۱ فرهنگ بزرگ سخنی، تهران.
محمد مُعین. س. ۵۷۳۱ فرهنگ فارسی، تهران.

Abbreviations

Tb. – To'nyuquq bitiktoshi.

Ktb. – Kultegin bitiktoshi.

BXb – Bilga xoqon bitiktoshi.

BN. – Boburnoma.

Nav. «FSh» – Alisher Navoiy «Farhod va Shirin».

Nav. «SS» – Alisher Navoiy «Sab'ayi Sayyor».